

## O'zbekiston tumani hokimligi rahbarlarining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy qabul qilish GRAFIGI

<b>F.I.Sh</b>	<b>Hafta kunlari</b>	<b>Tashkilot</b>
<b>Lavozimi</b>	<b>Vaqti</b>	
<b>Djuraev Qahramon Ruzmatovich</b> O'zbekiston tumani hokimi	Seshanba 09.00-12.00	O'zbekiston tumani hokimligi
<b>Abdullaev Anvarjon Alievich</b> O'zbekiston tumani hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	Dushanba 09.00-12.00	O'zbekiston tumani hokimligi
<b>Exsonov Jaxongir Zafarovich</b> O'zbekiston tumani hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik bo'yicha o'rinbosari	Chorshanba 09.00-12.00	O'zbekiston tumani hokimligi
<b>Qurbonov Xamdajon Abduraxmonovich</b> O'zbekiston tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Payshanba 09.00-12.00	O'zbekiston tumani hokimligi
<b>Kamolova Maxmudaxon A'zamovna</b> O'zbekiston tumani hokimi o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi	Juma 09.00-12.00	O'zbekiston tumani hokimligi

**O'zbekiston tuman hokimligining rasmiy veb sayti** [www.yaypan.uz](http://www.yaypan.uz)

**O'zbekiston tuman hokimligi manzili:** Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani Oxunboboev ko'chasi 98 uy.

**151800 Ishonch telefoni: 0 (373) 539-15-43**

**Elektron pochta:** [info@yaypan.uz](mailto:info@yaypan.uz)

**E-xat pochta:** [ozbekiston.t@exat.uz](mailto:ozbekiston.t@exat.uz)

### **1. Tuman tashkil topganligi haqida ma'lumot**

Tuman 1926 yili tashkil topgan. Tuman markazi - Yaypan shahri.

### **2. Tuman joylashganligi haqida ma'lumot.**

Tuman Farg'ona viloyatining janubiy g'arbida joylashgan bo'lib, Beshariq, Furqat tumanlari, Qo'qon shahri va Tojikiston Respublikasi (12 km) bilan chegaradosh. Umumiy yer maydoni 689 kv.km ni tashkil qiladi.

### **3. Aholi haqida ma'lumot.**

Tumanning 108 ta aholi yashash bo'limlarida 188,8 ming kishi istiqomat qilib, shundan shaharda 87,7 ming kishi (46,5%) ni, qishloqda 101,1 ming kishi (53,5%) ni tashkil qiladi. Aholini 98,3% ni o'zbeklar, 1% ni qirg'izlar, 0,2% ni tojiklar va boshqa millat vakillari tashkil qiladi.

### **4. Qo'shma korxonalar va sanoat korxonalar soni.**

Tumanda 2 ta yirik sanoat korxonasi: "KAZ Shorsu kon" AJ, "Uzbekiston paxta tozalash zavodi" AJ mavjud. Bu sanoat korxonalarida qurilish materiallari va paxta tolasi ishlab chiqariladi.

Tumanda 4 ta qo'shma korxonasi: O'zbek-Gresiya "Yaypan" QK, O'zbek-Rossiya "Poytaxt plyus rus" QK, O'zbek-Qozoq "Kaz Shorsuv-Kon" QK, O'zbek-Rossiya "Legion gaz invest" QK ro'yxatga olingan.

### **5. Yangi yaratilgan ishchi o'rinlar.**

---

Tumanda yangi yaratilgan ishchi o`rinlar soni - 2995.

**6. Kichik biznes sub'ektlari va fermer xo`jaliklari.**

Kichik biznes sub'ektlarining umumiy soni 2615 ta, shundan 2114 tasi fermer xo`jaliklari (har bir fermer xo`jaligi uchun o`rtacha yer maydoni 9,4 ga).

**7. Bilim yurtlari va sog`liqni saqlash ob'ektlari.**

Tumanda 33916 tu o`quvchiga mo`ljallangan 67 ta o`rta maxsus umumta'lim maktablari, 5097 ta talaba mo`ljallangan 6 kasb-hunar kollejlari mavjud.

Bundan tashqari 520 ta bemorga mo`ljallangan 14 kasalxona, 27 ta shifoxona va 19 ta qishloq vrachlik bo`limlari faoliyat yuritmoqda.

2017-06-19 20:25:09